

Tokioga muntazam aviaqatnovlar tiklandi

2023 14 Aprel

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi 13-apreldan boshlab Toshkent – Tokio – Toshkent yoʻnalishi boʻyicha muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirishni boshladi. Kunchiqar mamlakatga toʻgʻridan-toʻgʻri parvozlari har hafta payshanba kunlari amalga oshiriladi.

Toshkent-Tokio yoʻnalishidagi aviachiptalar narxi 6 270 352 soʻmdan, Toshkent – Tokio – Toshkent yoʻnalishida esa 11 292 048 soʻmdan boshlanadi.

Aviachiptalarning taqdim etilgan narxlari 2023-yil 14-aprel holatiga koʻra amal qiladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com sayti orqali 3% chegirma bilan, shuningdek, “UzAirways” mobil ilovasi, Uzbekistan Airways Sales orqali yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilishingiz mumkin.